

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismailova, N. (2019). Ijodkorlik va tasvir yaratish san'ati. Tashkent: Adabiyot.
2. Qodirov, A. (2019). Psixologiyada ijodiy tafakkur muammolari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Begmatov, I. (2021). Ijodiy faoliyat va bolalar rivojlanishi. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.

Internet manbalari:

- www.ziyonet.uz
- www.pedagog.uz

“QURISH - KONSTRUKSIYALASH MARKAZIDA KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH UCHUN O'YINLAR VA MASHQLAR ISHLAB CHIQISH”.

Gapparova Zilola Ne'mat qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus

ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

Baratova Nigora Uralovna

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari

“B” guruh tinglovchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolanini yozishdan maqsad, maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosatining maqsadi har bir bolaning sifatli va bepul ta'lim olish huquqini amalga oshirishdir. Maktabgacha ta'limdagi zamonaviy talablar tarbiyalanuvchining shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining mazmunini va tashkil etilishi to'g'risidagi yangi tushunchani belgilaydi. Yangi model pedagoglarga bolalarning rivojlanishini hisobga olgan



holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir yosh guruhlar uchun ta'lim dasturlarini tuzishga imkon beradi. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning zamonaviy tizim shakllarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga moslashuvchan munosabat, bolalar uchun maktabgacha ta'limning yangi turlarining paydo bo'lishi har xil pedagogik xizmatlar bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'limda, "Ilk qadam", o'yin, "qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazi.

Abstract: the purpose of writing this article is to realize the right of every child to quality and free education. Modern requirements in preschool education determine a new concept of the content and organization of the educational process, focused on the personality of the child. The new model allows educators to create educational programs for each age group in preschool educational organizations, taking into account the development of children. The variability of modern systemic forms of preschool education in Uzbekistan, a flexible approach to the needs of society and the individual, the emergence of new types of preschool education for children are characterized by various pedagogical services.

Keywords: In preschool education, "First step", game, "construction, construction and mathematics development center.

Konstruktiv fikrlash – bu murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, muammoni konstruktiv yo'nalishda hal qilish, tizimli va mantiqiy fikr yuritishni o'z ichiga olgan ijodiy fikrlash shaklidir. Qurilish sohasida bu ko'nikma loyihalarni loyihalash, konstruksiyalarni yaratishda yangi va samarali yechimlarni topishda, hamda xavfsizlik va iqtisodiy jihatlarni hisobga olgan holda ishlashda katta rol o'ynaydi.

O'yinlar va mashqlar yordamida konstruktiv fikrlashni rivojlantirish

O'yinlar va mashqlar orqali fikrlash jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklda shakllantirish mumkin. Bunday usullar nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki ijodkorlik va muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi.

Quyida qurilish-konstruksiyalash markazida qo'llanishi mumkin bo'lgan ba'zi o'yinlar va mashqlar keltirilgan:



1. **Modul qurilish o'yini**

Talabalar yoki ishtirokchilar turli modullar yordamida berilgan topshiriq bo'yicha konstruktsiya yaratadilar. Bu o'yin ularga konstruktiv elementlarni qanday birlashtirish, kuch va barqarorlikni hisobga olishni o'rgatadi.

2. **Muammoni hal qilish vazifalari**

Konstruksiyalarni loyihalashda yuzaga keladigan muammolarni berib, ularga samarali yechimlar izlash topshirig'i beriladi. Masalan, og'ir yuklarni ko'tarmaydigan binoni qanday yaxshilash mumkinligi haqida fikr yuritish.

3. **Ijodiy dizayn tanlovi**

Turli konstruksion materiallar va elementlardan foydalanib, eng innovatsion va amaliy loyihani yaratish musobaqasi tashkil qilinadi. Bu ishtirokchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

4. **Tahlil va taqqoslash mashqlari**

Turli qurilish loyihalarini tahlil qilib, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, yaxshiroq yechimlarni taklif etish mashqlari.

Mashqlarni ishlab chiqishda e'tibor beriladigan jihatlar

Amaliy yo'nalish: Mashqlar qurilish sohasining real vaziyatlariga yaqin bo'lishi kerak.

Bosqichma-bosqich rivojlantirish: Oddiydan murakkabgacha bo'lgan vazifalarni qo'yish orqali fikrlash darajasini oshirish.

Hamkorlik elementlari: Guruhlarda ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish orqali kommunikatsiya va jamoaviy fikrlashni rag'batlantirish.

Qiziqarli va interaktiv bo'lishi: O'yin va mashqlar ishtirokchilar uchun qiziqarli bo'lsa, ular o'rganishga ko'proq intilishadi.

Maktabgacha ta'limda bolalar ta'limi samaradorligi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar orasida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi muhim ahamiyatga ega. Bular



tarbiyachilarning ijodiy faoliyati uchun qo'llanma hisoblanib, maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonining mazmunini belgilaydi. Maktabgacha ta'limning ilmiy va metodik tushunchasini aks ettirib, bola rivojlanishining barcha asosiy sohalarida tarkib topadi. "Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish" maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatini tashkil etishning mazmun va mohiyatini ochib beradi. 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 10-bobi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalari", deb nomlangan. Mazkur bobning 52-moddasida Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti keltirib o'tilgan. Shunga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi uchun Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish yuritishga yo'naltirilgan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi. Bugungi kunda Respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan ushbu sohani yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash masalasining ustivor vazifalarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning aqliy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini ta'minlash muhim vazifalardan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, qurish va konstruksiyalash



faoliyati bolalarning mantiqiy tafakkurini, fazoviy tasavvurini, muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu faoliyat jarayonida bolalarning konstruktiv fikrlashini rivojlantirish – ularning atrof – muhitdagi predmet va hodisalarni chuqurroq anglashlari, yangicha yondashuv va yechimlarni topishga qodir bo'lishlari uchun asos yaratadi. Konstruktiv fikrlash – bu mavjud bo'lgan elementlardan yangilik yaratish, loyihalash va yaratish faoliyatini anglatadi. Bu turdagi fikrlashni shakllantirish uchun esa, bolalarni o'yin orqali o'rgatish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. O'yin va mashqlar yordamida bolalarda qurilish materiallarining shakli, hajmi, joylashuvi hamda ularni to'g'ri birlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu boisdan, qurish va konstruksiyalash markazida konstruktiv fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlar va mashqlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur jarayonlarini rivojlantirish ta'lim tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa konstruktiv fikrlashni shakllantirish orqali bola hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, yangicha yondashuvlar topish va ijodiy faoliyat yuritishga qodir bo'ladi. Konstruktiv fikrlash – bu bor narsalardan yangi narsa yasash, predmetlar va ularning qismlarini o'zaro bog'lash orqali butunlik yaratish qobiliyatidir. Bu esa ayniqsa qurish va konstruksiyalash faoliyati orqali rivojlanadi. Qurish - konstruksiyalash markazi – bu bolalarga tajriba orqali o'rganish, mustaqil fikr yuritish va qo'llari bilan yaratish imkonini beruvchi makondir. Mazkur markazda o'yin shaklida tashkil etilgan mashqlar bolaning didaktik faoliyatini faollashtirib, mantiqiy, fazoviy va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, konstruktiv fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus o'yinlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yer sayyorasi – quyosh tizimidagi yagona hayot mavjud bo'lgan sayyora hisoblanadi. U o'zining qulay iqlimi, suv



zahiralar, atmosferasi va tabiiy resurslari bilan barcha tirik organizmlar uchun yashash muhitini yaratadi. Yerning 71 foizi suv bilan, 29 foizi esa quruqlik bilan qoplangan. Atmosferasidagi kislarod va azot aralashmasi tiriklik uchun muhim sharoitni ta'minlaydi. Biroq inson faoliyati tufayli ekologik muommolar – global isish, o'rmonlarning kesilishi, hayvon turlarining yo'qolishi – ortib bormoqda. Shuning uchun yer sayyorasini asrab avaylash, tabiiy boyliklarini tejash va ekologik muvozanatni saqlash har bir insonning burchidir. Yer – noyob va bebaho sayyora bo'lin uni saqlab qolish kelajak avlodlar uchun muhimdir.

Yer o'zining ichki tuzilmasi jihatidan ham murakkab bo'lib, yadrosi, mantiyasi va qobig'idan tashkil topgan. Yerda mavjud bo'lgan iqlim zonalari, turli tabiiy eko tizimlar – o'rmonlar, cho'llar, tog'lar, dengiz va tundiralar – biologik xilma-xollikni tashkil etadi. Bu xilma-xillik insoniyat hayoti uchun muhim bo'lgan oziq-ovqat, dori-darmon, kislorot va boshqa ko'plab resurslar taqdim etadi.

Yer biz yashaydigan eng muhim sayyora. Unda tog'lar, daryolar, daraxtlar, gular, hayvonlar va odamlar bor. Yer bizda havo, suv, oziq-ovqat va uy beradi. Shuning uchun ham yer bizning eng yaqin do'stimizdir. Yer sayyorasini toza tutish juda: chiqqindilarni yerga tashlamaslik, daraxtlarni kesmaslik, suvni isrof qilmaslik kerak. Chunki agar yer iflos bo'lsa hayvonlar o'simliklar va odamlar kasal bo'lishi mumkin.

Yer sayyorasi kunida biz yerga rahmay aytamiz va asrashga va'da beramiz. Har bir bola daraxt ekib, gullarga g'amxo'rlik qilib suvni tejab, axlatni to'g'ri tashlab yerga yoram bera oladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir.

Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan



davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda fan — texnika nihoyatda jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, intellektual rivojlanishlariga katta ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi. Bolalarning elementar matematikaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, matematik topshiriqlar, ta'limiy o'yinlar orqali bolalarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

- *son va sanoq haqida bilimlar berilib, birinchi va ikkinchi o'nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi.*
- *geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi;*
- *fazoviy munosabatlarni tushunish va fazoda mo'ljal olish ko'nikmasi hosil qilinadi;*
- *vaqt haqida tasavvurlar shakllantiriladi;*
- *miqdor (kattalik) haqida tasavvurlar hosil qilinadi;*

Faoliyatlar davomida bolalar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o'yinlarni o'ynab, ijod qilgan holda yangi matematik tushunchalarni o'rganib, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab boradilar. Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta'lim katta ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim — bu didaktik tizim bo'lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat— bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir. Muammoli jarayon — o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir.



Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'rilanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og'zaki, masala yechish uslublari chuqur va mustahkam o'zlashtirilgandagina, muammoli ta'lim foydali bo'lishi mumkin.

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida asosan bolalar faoliyati–amaliy faoliyat bo'lib, ular qurish-yasash faoliyati bilan bir vaqtda matematik tasavvurlarini ham shakillantirib boradilar. Bu esa bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko'nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylilik va hokazo...) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaydi.

Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotda qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Xulosa

Qurilish-konstruksiyalash markazlarida konstruktiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar va mashqlar ishlab chiqish nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki mutaxassislarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida sifatli va innovatsion qurilish loyihalarini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, interaktiv va amaliy mashqlar orqali yosh quruvchilar va konstruktorlarga murakkab

muammolarni samarali hal qilish ko'nikmasini berish, ularning kelajakdagi professional muvaffaqiyatlarini kafolatlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. **Abdullaeva, M.** (2020). *Konstruktiv fikrlashni rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. **Islomov, D.** (2019). *Qurilish va konstruksiyalashda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. **Karimova, N.** (2021). *O'yinlar va mashqlar yordamida fikrlashni rivojlantirish*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
4. **Ergashev, S.** (2022). *Qurilish konstruktsiyalarini loyihalash asoslari*. Toshkent: Qurilish va arxitektura.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIKNI

O'RGATISHNING AHAMIYATI

Zavqiyeva Ulbo'sin Istamxon qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus

ta'lim metodikalari kafedrası

Maktabgacha ta'lim B guruh tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yosh – bu bolalarning hayotida jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim bosqichidir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol o'rganadi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi, mustaqil harakat qilishga intiladi. Shu bilan birga, bu yoshdagi bolalar hali hayotiy tajribaga ega emasligi, xavf-xatarlarga nisbatan ehtiyotsizligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga xavfsizlik qoidalarini o'rgatish ularning hayotini himoya qilish, sog'lom tarbiyani ta'minlash va kelajakda mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun juda muhimdir. Ushbu mavzuni yoritishdan asosiy maqsad — maktabgacha yoshdagi bolalarning hayoti va salomatligini saqlashda xavfsizlik qoidalarini o'rgatishning o'ta muhimligini asoslab